



Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna,
Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrası dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'SMIR FARZAND VA ONA O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona va o'smir farzandning o'zaro munosabat xususiyatlari haqidagi tasavvurlari mutanosibligining psixologik ahamiyatini empirik o'rganish natijalari bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: oila, oilaviy munosabat, ona, o'smir farzand, tasavvur, munosabat, xususiyat.

Аннотация. В статье описаны результаты эмпирического исследования психологической значимости пропорциональности представлений матери и ребенка-подростка об особенностях взаимодействия

Ключевые слова: семья, семейная отношения, мать, подросток, воображение, отношение, особенность.

Annotation. This article describes the results of empirical study of the psychological significance of the proportionality of perceptions of mother and teenager child about the characteristics of interaction.

Keywords: family, family relations, mother, teenager, imagination, attitude, peculiarity

Kirish. Respublikamizda so'nggi yillarda oila institutini mustahkamlash, "Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi" konseptual g'oyasini ro'yobga chiqarish, ota-ona va farzand munosabatlarini yaxshilash, yoshlarni oila qurish, farzand tarbiyalashga psixologik tayyorlash masalalarini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ota-ona va farzand munosabatlari borasida so'z yuritir ekan, "Bola ota-ona qo'lida bir omonatdir", – deydi. Bolalarimiz, ularning taqdiri, kelajagi haqiqatan ham juda omonat ekanini bugungi hayot har tomonlama isbotlamoqda. Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o'rgatmasak,

munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas"¹, deb ta'kidlaydi.

Darhaqiqat bolaning har jihatdan sog'lom, barkamol shaxs sifatida shakllanishi oilaviy munosabatlarga, oilada ota-ona va bola munosabatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga, oilaviy tarbiya asoslariga ko'p jihatdan bog'liq. Oilaviy munosabatlarning eng ta'sirli, muhim va jozibali bo'lagi – bu ona-bola munosabatlaridir. Ularning muhimligi shundaki, aynan dastlabki muloqot va mehrli munosabatlar bolaning keyingi psixik va aqliy taraqqiyotini hamda onaning xulq-atvorini shakllantiradi ².

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tarilamiz. – Toshkent. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – B.480.

² Kamilova N.G'. Muammoli o'smir: tashxis, tadqiqot metodlari. – Toshkent: TDPU, 2004. – 67 b.

Asosiy qism. Odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabat, shubhasiz, o'zining murakkab ichki qonuniyatlariga ega bo'lgan jarayondir. Ushbu jarayonning eng muhim shartlari va asoslarini tahlil qilish uchun ham o'ziga xos dialektik tabiati mavjudligini qayd etish o'rinli ekanini ko'rsatadi. Bu sohadagi dialektizmning yorqin ifodasini shaxslararo munosabatga kirishuvchi odamlarning bir-biriga turli mezonlar bo'yicha o'xshash bo'lishi va ayni vaqtda o'zaro farqlanishi zaruratida qayd etish mumkin. Darhaqiqat, odamlar o'rtasida o'zaro munosabat nafaqat samarali va mahsuldor rivojlanishi, balki vujudga kelishi uchun ularning qator mezonlar bo'yicha bir-biriga yaqin, o'xshash bo'lishi talab qilinadi. O'xshash belgilar tizimidan foydalanmaslik, ayni bir fikrga har xil ma'nolarni yuklash, ma'lum hodisaning mutlaqo qarama-qarshi tomonlariga diqqatni qaratish o'zaro ta'sirlashuv jarayonini qiyinlashtiradi.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi sohasida shaxslararo munosabatlar subyektlarining o'zaro mosligi, turli ko'rsatkichlar bo'yicha bir-biriga muvofiqligining munosabat tizimiga qanday ta'sir ko'rsatishi, asosan, er-xotin o'rtasidagi o'xshashlik masalasi doirasida o'rganilgan. Xususan, er va xotin o'rtasidagi o'zaro moslik darajasi past oilalarda bunday ko'rsatkich yuqori bo'lgan oilalarga nisbatan salbiy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning oilaviy hayotga buzg'unchi ta'siri kuchli bo'lishi aniqlangan³.

Psixologik tadqiqotlarda ota-ona va o'smir farzandlarning o'ziga hamda bir-biriga beradigan tavsiflarida ikkala avlod o'zini va bir-birini, asosan, ijobiy baholashi, ammo qarama-qarshi tomonning unga bo'lgan munosabatini yanglish idrok etishi (ota-onaning bolalardan, bolalarning ota-onadan asliga nisbatan salbiyroq bahoni kutishi) ma'lum bo'ldi⁴. Ko'plab tadqiqotlarda ota-ona va o'smir farzandlarning bir-biri haqidagi tasavvurlari ularning munosabatlariga qanday ta'sir ko'rsatishi tekshirilgan. L.F.Fomicheva ota-onasi bilan munosabatlari ijobiy o'smirlarning ular haqida differensial, keng va emotsional bo'yoqdor

tasavvurga ega bo'lishini aniqlagan⁵. K.N.Belogay tadqiqotlarida ota-ona va farzandlar munosabatlari psixokorreksiyasiga qaratilgan chora-tadbirlar ota-onada o'z farzandi va "ideal bola" haqidagi, "ideal ota-ona" va o'zi to'g'risidagi tasavvurlari mazmuni bir-biriga yaqinlashishi isbotlangan⁶. Biroq bevosita ona o'zi uchun xos deb bilayotgan munosabat haqidagi tasavvur o'smir farzand nazarida onasi unga nisbatan, aslida, namoyon etuvchi munosabatga muvofiqlik darajasi o'zaro ta'sirlashuvda qanday aks etishi maxsus tekshirilmagan.

Tadqiqotda onaning nazarida u farzandiga nisbatan namoyon etuvchi munosabat va uning o'smir farzand nigohida qanday aks etayotganini qiyosiy o'rganish uchun Y.S.Sheferning "O'smir ota-ona haqida" metodikasi qo'llandi. Ma'lumki, ushbu metodika besh xil shkala: ijobiy qiziqish, direktivlik, dushmanlik, avtonomlik, beqarorlik xususiyatlariga mos shkalalar bo'yicha o'smirlar nazarida ularga nisbatan ota yoki ona namoyon etuvchi munosabat darajasini baholash imkonini beradi⁷.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ilmiy tadqiqot modeliga ko'ra, avval o'smirlar bergan bahoga asosan Y.S.Shefer metodikasining birinchi shkalasi – bolaga nisbatan ijobiy qiziqish darajasi asosida respondent ayollarning ikki shartli guruhi: ushbu mezon bo'yicha bolasining yuqori va past bahosiga sazovor bo'lgan onalar guruhlar ajratildi. Sinaluvchi onalar ikki shartli guruhga ajratilgach, to'rt diagnostik shkala bo'yicha ularga farzandlari bergan hamda ular o'ziga qo'ygan baholarning o'zaro muvofiqlik darajasi matematik statistika metodlari (Styudent t-mezonini hisoblash metodi) yordamida tekshirildi. Natijalarning miqdoriy qiyosiy tahlili, haqiqatan ham, farzand nuqtayi nazaridan unga nisbatan ijobiy qiziqishni yuqori va sust darajada ifodalovchi onalarning barcha shkalalar bo'yicha shakllangan tasavvurlari va bolalar ularda qayd etadigan xususiyatlar o'rtasidagi farq ko'rsatkichlarida farq turlicha ekanini tasdiqladi.

⁵ Фомичева Л.Ф. Образ родителей и представленность отношений с ними у подростков // Психологическая наука и образования. – Москва. 2005. – №3. – С.26–40.

⁶ Белогай К.Н. Структурные компоненты родительского отношения личности: Автореф. дис. ... канд. психол. наук. – Кемерово: КГУ, 2006. – 24 с.

+ Клочко Ю.Н., Ермилова Н.Ю., Клочко А.Ю. Социализация личности, ее социальный статус и социальная роль // Вестник Сев. Кав. ГУ. Серия "Гуманитарные науки". 2004. – №1. – С. 45–53.

³ Наш проблемный подросток: понять и договориться / Под ред. Л.А.Регуш – Санкт-Петербург: Изд-во РГПУ, 2001. – 191 с.

⁴ Популярная психология для родителей / Под ред. А.А.Бодалева. – Москва: Педагогика, 1988. – 256 с.

**“Ijoby qiziqish” shkalasi bo'yicha yuqori baholangan onalarning o'z tasavvuridagi va farzand nazaridagi munosabati ko'rsatkichlarida aniqlangan tafovut darajasi
(Styudentning t-mezoni bo'yicha)**

№	Munosabat xususiyatlari	Baho manbasi		Statistik tafovut darajasi	
		Ona tasavvuriga asoslangan baho	Farzand fikriga asoslangan baho		
		M_1	M_2	T	p
1	Direktivlik	2,6	1,8	2,04	$p \geq 0,05$
2	Dushmanlik	2,3	1,2	1,99	$p \geq 0,05$
3	Avtonomlik	2,7	1,4	2,06	$p \geq 0,05$
4	Beqarorlik	2,4	1,7	2,03	$p \geq 0,05$

Albatta, keltirilgan natijalarda, diqqatga sazovor jihat shundaki, ijoby qiziqishning yuqori darajasini namoyon etuvchi onalarga farzandlari salbiy munosabatning barcha mezonlari bo'yicha past baholarni qo'yganliklaridir. Biroq psixologik jihatdan alohida e'tiborga loyiq yana bir holat shuki, “ijoby qiziqish” shkalasi bo'yicha farzandning yuqori bahosiga sazovor bo'lgan onalarning bolaga munosabatining barcha shkalalari bo'yicha tasavvurlari bolaning nuqtayi nazaridan ahamiyatli darajada farqlanmaydi (farqning ahamiyati $p \geq 0.05$ darajada). Boshqacha aytganda, bolasining nigohida unga nisbatan katta qiziqish bilan qarashga intiluvchi ona o'zaro munosabatning turli shkalalari bo'yicha o'ziga beradigan baho unga farzand beruvchi tavsifga yaqindir.

Nazarimizda, aniqlangan holat, avvalo, farzandiga ijoby qiziqish bilan munosabatda bo'luvchi onaning qayta aloqani qabul qilishga doim ochiq bo'lishi va uning hisobiga bolada unga nisbatan shakllangan fikr, bahoni bilishi tufayli vujudga keladi. Bizning fikrimizcha, ushbu jarayon ichki tomondan quyidagicha amalga oshadi: onasining o'ziga nisbatan ijoby qiziqishini ko'rayotgan o'smir u bilan munosabatda o'zini xavfsiz his etadi; xavfsizlik hissi sababli o'smir onasi va uning munosabati xususiyatlari yuzasidan ochiq fikr bildira oladi; ona farzandining o'zi haqidagi fikridan o'zining unga munosabati to'g'risidagi xulosani shakllantirishda muhim manba sifatida foydalanadi; onaning o'z farzandiga bo'lgan munosabati haqidagi tasavvurlarida adekvatlik darajasi ortadi.

Foiz tahlili natijalaridan ham onasining ijoby qiziqish darajasini yuqori baholovchi o'smirlarning katta qismi unda direktivlik, dushmanlik, avtonomlik, beqarorlik munosabatiga duch kelmasligini, bu borada onasiga past baho beruvchi o'smirlar ko'proq duch kelishini bildirishi ko'rinmoqda.

Umumiy ravishda, keltirilgan natijalardan o'smirlarning ona munosabati uchun muayyan xususiyatning kam yoki ko'p darajada xosligi yuzasidan bildiruvchi fikrida yakdillik kuzatilishini, shunga ko'ra, yuqorida qayd etilgan o'rtacha ko'rsatkichlar alohida sinaluvchilarning natijalari o'zaro keskin farqlanishi tufayli emas, balki bir-biriga yaqin past yoki baland qiymatlar hisobiga vujudga kelganini e'tirof etish o'rinli.

Farzandi nazarida unga nisbatan ijoby qiziqishini namoyon etayotgan onalarning yuqoridagi ko'rsatkichlarida barcha shkalalar bo'yicha ular o'zlariga beradigan bahoning bola ko'z o'ngida aks etayotgan munosabatga qaraganda salbiy tomonga og'ishgan ekanligini ham qayd etmay bo'lmaydi. Bizningcha, bunday natija, birinchi navbatda, ushbu onalarning farzand bilan bo'lgan munosabatini tanqidiy nuqtayi nazardan baholashga intilishi va bunga qodir ekanini ifodalaydi. Bundan esa ushbu toifa onalarning shaxs sifatida yetuklik darajasi ham nisbatan yuqori ekani xususida xulosa chiqarish mumkin. Demak, farzandiga bo'lgan munosabati haqidagi shaxsiy tasavvurlari va bola tomonidan bu borada onaga berilgan bahoning muvofiqlik darajasi uning shaxs sifatidagi rivojlanish xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritishda o'ziga xos psixologik mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Farzandning nuqtayi nazariga ko'ra, unga nisbatan munosabatda ijoby qiziqishni sust darajada namoyon etuvchi onalarning natijalarida yuqoridagidan ancha o'zgacha holat qayd etildi. Jumladan, farzandlari nafaqat ularning direktivlik, dushmanlik, avtonomlik, beqarorlik darajasini umumiy tarzda olganda yuqori baholaydilar, balki ularning bu boradagi tasavvurlari bola ko'z o'ngida gavdalanuvchi munosabatdan farqlanadi.

“Ijoby qiziqish” shkalasi bo'yicha past baholangan onalarning o'z tasavvuridagi va farzand nazaridagi munosabati ko'rsatkichlarida aniqlangan (Styudentning t-mezoni bo'yicha) tafovut darajasi

№	Munosabat xususiyatlari	Baho manbasi		Statistik tafovut darajasi	
		Ona tasavvuriga asoslangan baho	Farzand fikriga asoslangan baho		
		M_1	M_2	T	p
1	Direktivlik	3,2	4,3	2,23	$p \leq 0,05$
2	Dushmanlik	3,1	4,6	2,14	$p \leq 0,05$
3	Avtonomlik	2,5	4,4	2,79	$p \leq 0,05$
4	Beqarorlik	2,2	4,7	2,83	$p \leq 0,05$

Natijalardan ma'lum bo'lishicha, farzandiga nisbatan ijobiy qiziqishni ularning nazarida sust ifodalovchi onalarning o'z tasavvuridagi munosabati bilan bolalari idrok etayotgan munosabat o'rtasida salbiy tomonga og'ishish darajasi yuqoridir. Boshqacha aytganda, farzandiga ijobiy qiziqishning past darajasini namoyon etuvchi onalarning o'z tasavvuridagi munosabati bolalar ko'z o'ngida aks etuvchi munosabatga adekvat emas (2-jadval).

Qolaversa, o'smir farzand onasi unga nisbatan namoyon etayotgan munosabatning o'ziga xosligini tan olmayotgan turli yo'llar bilan niqoblashga intilayotganini his etganda uning kattalarga bo'lgan tanqidiy bahosi yanada ortishini kutish o'rinli. Bu esa, bir tomondan, ularning munosabatlarida qo'shimcha to'siqlarni vujudga keltirsa, ikkinchi tomondan, ushbu sohada qiyinchiliklarni yengib o'tishga intilishni, bunga erishish mumkinligiga ishonchni susaytiradi. Mazkur holatning eng ayanchli jihati shundaki, ikkala taraf bir-birining o'zaro munosabat xususiyatlari haqidagi tasavvurlari Pirovandida nomutanosib bo'lib chiqayotganini qarama-qarshi tomonning o'ziga xos sirtqi e'tirozi, o'z-o'zini yaxshi bilmaslikdagi ayblovi sifatida ham qabul qilinishi va bu holda, tabiiyki, psixologik jihatdan yanada og'riqli kechinmalarni uyg'otishi mumkin.

E'tiborli jihatlardan biri shundaki, farzandga munosabatning barcha tashxis qilingan yo'nalishlari bo'yicha onalarning tasavvurlaridagi noadekvat darajasi bir xil ko'rinishda emas. Xususan, onalarning avtonomlik va beqarorlik darajasi haqidagi tasavvurlari va bu shkalalar bo'yicha farzandlar bahosi bir-biridan, keskin farqlanadi. Bizningcha, ushbu xususiyatlar yuzasidan onalarning o'z ko'rsatkichlarini bolalar nuqtayi nazariga nisbatan ancha past baholashiga bu sifatlar ular

ongida o'xshash, ammo kundalik hayotga ko'proq neytral yoki ijobiy baholanuvchi sifatarga yaqin aks etishi sabab bo'lishi mumkin. Masalan, avtonomlik, ya'ni farzand bilan munosabatda o'zini rasmiy va sovuq tutish, bolaga faqatgina u biror ish sodir etganda diqqat qaratish, o'ta befarqlik bunday onalar tomonidan erkinlik berish, mustaqillikka undashning bir ko'rinishi sifatida idrok etilsa, bunday holatda ona o'zini avtonomlikni emas, aslida, bu sifatlarini namoyon etayotgandek qabul qiladi va oqibatda o'z tub mohiyatiga ko'ra avtonomlashishga qaratilgan harakatini past baholaydi⁸. Xuddi shuningdek, beqarorlik, ya'ni bir vaziyatda ustunligini ta'kidlashga, boshqasida itoatkorlikka, bir vaziyatda bag'rikenglikka, boshqasida maydakashlikka moyillik, aslida, sharoitga qarab ish ko'rish, doim bolaning imkoniyatlari va holatini e'tiborga olishga intilishdek qabul qilinishi hamda shunga muvofiq ona ushbu sifatni o'zida payqamasligi mumkin⁹.

Dushmanlik va direktivlik sifatleri bo'yicha onalar bir qarashda parodaksal ravishda avtonomlik va beqarorlikka nisbatan o'zlariga yuqori baho qo'yishlarini boshqa mexanizmning faoliyati bilan tushuntirish o'rinli, deb hisoblaymiz. Bizningcha, bu borada onalarning o'zlarini biroz tanqid qilishdan qochmasligiga ularning ushbu sifatlar, avvalo, bola foydasi uchun zarur degan xulosaga kelishlari sababdir. Bolaning barcha ishlari uchun mas'uliyatni to'liq o'z zimmasiga olish, uning xulqida salbiy o'zgarishlarning ro'y berishiga qanday bo'lmasin, yo'l qo'ymaslik, uni doimiy nazoratda saqlash (direktivlik), o'ta qattiqqo'llik, bolani raqib o'rnida ko'rish, uni kamsitish hisobiga o'z-o'ziga hurmatni

⁸ Kamilova N.G'. Muammoli o'smir: tashxis, tadqiqot metodlari. – Toshkent: TDPU, 2004. – 67 b.

⁹ Kamilova N.G'. Muammoli o'smir: tashxis, tadqiqot metodlari. – Toshkent: TDPU, 2004. – 67 b.

o'shishga intilish (dushmanlik) ona tomonidan farzand tarbiyasining buzilishiga yo'l qo'ymaslik, uni tashqi dunyo "yovuzliklari"dan asrashga harakat qilish sifatida idrok etilar ekan, bu ko'rsatkichlar yuzasidan o'zini nisbatan yuqori baholashi tabiiydir.

Demak, farzandi nazarida unga ijobiy qiziqishning turli darajalarini namoyon etuvchi onalarning bola bilan bo'lgan munosabatlari xususiyatlari haqidagi tasavvurlarida adekvatlik ko'rsatkichlari ham o'zaro farqlanadi. Amaliy jihatdan aniqlangan hodisaning dinamizm – sun'iy ta'sirga ta'sirchanlik darajasini aniqlashning ahamiyati katta ekani, shubhasiz. Bu yerda tadqiqotchi oldida bir vaqtning o'zida ikki masalani hal etish imkoniyati ochilmoqda.

Xulosa. Umuman olganda, ona va o'smir farzandning o'zaro munosabat xususiyatlari haqidagi tasavvurlari mutanosibligining psixologik ahamiyatini empirik o'rganish quyidagi umumiy xulosalar uchun asos bo'ldi:

1. Farzandi nazarida unga ijobiy qiziqishning turli darajalarini namoyon etuvchi onalarning bola bilan bo'lgan munosabat xususiyatlari haqidagi tasavvurlarida adekvatlik ko'rsatkichlari ham o'zaro farqlanadi.

2. Farzandiga bo'lgan munosabati haqidagi shaxsiy tasavvurlari va bola tomonidan bu borada onaga beriladigan bahoning mutanosiblik darajasi uning shaxs sifatidagi rivojlanish xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritishda o'ziga xos psixologik mezon bo'lib xizmat qilish mumkin.

3. Onalarning o'smir farzand bilan bo'lgan individual munosabat uslubi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishga, turli vaziyatlarni, hodisalarni o'z bolasi nuqtayi nazaridan tasavvur qilib ko'rishga, o'zini o'zi ona sifatida jiddiy tahlil etishga undash bilan "ona-bola" tizimidagi o'zaro ta'sirlashuv jarayonining konstruktivlik darajasini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'tarilamiz. – Toshkent. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592 b.
2. Белогай К.Н. Структурные компоненты родительского отношения личности: Автореф. дис. ... канд. психолог.наук. – Кемерово: КГУ, 2006. – 24 с.
3. Kamilova N.G'. Muammoli o'smir: tashxis, tadqiqot metodlari. – Toshkent: TDPU, 2004. – 67 b.
4. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. – 152 b.
5. Клочко Ю.Н., Ермилова Н.Ю., Клочко А.Ю. Социализация личности ее социальный статус и социальная роль // Вестник Сев. Кав. ГУ. Серия "Гуманитарные науки". 2004. – №1. – С. 45–53.
6. Наш проблемный подросток: понять и договориться / Под ред. Л.А.Регуш – Санкт-Петербург: Изд-во РГПУ, 2001. – 191 с.
7. Популярная психология для родителей / Под ред. А.А.Бодалева. – Москва: Педагогика, 1988. – 256 с.
8. Фомичева Л.Ф. Образ родителей и представленность отношений с ними у подростков // Психологическая наука и образования. – Москва. 2005. – №3. – С.26–40.